



O‘zbekistonda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy muammolari

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo‘limi
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (huquq ta‘limi) yo‘nalishi
1-bosqich magistranti Maripjonov Javlonbek Maxammadjon o‘g‘li
E-mail: javlonbekmaripjonov@gmail.com
Telefon: +998_94_385_27_97

ANNOTATSIYA: Maqolamizda O‘zbekistonda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy muammolari. Globalistik jarayonlarda Vatan tushunchasiga bo‘lgan qarashning o‘zgarib borishi. Vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik o‘rtasidagi qarashlarni mulohaza qilish.

KALIT SO‘ZLAR: Vatanparvarlik, Harbiy vatanparvarlik, Global, Millat.

Vatanparvarlik – vatanga muhabbat va sadoqat, vatan uchun xizmat qilish va bu yo‘lda butun umrini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo‘lsa, o‘z jonini ham fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha insonlar, millatlar, xalqlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o‘z vatani taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanishda, kelajagi uchun qayg‘urish va daxldorlikda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Tarixdan ma’lumki, birorta millat boshqa bir millatni tahqirlamoqchi yoki oyoqosti qilmoqchi bo‘lsa, avvalo, uning vatanini bosib olib, vayron qilgan yoki vatanidan quvib chiqargan. O‘z vatanining dushmanlar qo‘lida qolganini ko‘rgan millat uchun bundan ortiq xo‘rlik va azob bo‘lmasa kerak. Zero, Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir. Shuning uchun ham dinimiz ta’limotida ona Vatan himoyasi,



millat farovonligi haqida qayg‘urish Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadislarida ham keng yoritilgan.

Xalqning boshiga og‘ir kun kelganda jonini saqlash uchun vatanni tashlab qochish insoniylikka to‘g‘ri kelmaydi. Xalqimizda «o‘zga yurtda shoh bo‘lganingcha o‘z yurtida gado bo‘l», degan hikmatli so‘z ham bor. O‘z huzur-halovatini o‘ylab, o‘zgalarni unutgan kishi hech qachon ona Vataniga, xalqiga nisbatan sadoqatli bo‘lolmaydi.

Islomda Vatan tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, avvalo u istiqomat maskani, ya‘ni uy-joy ma‘nosida ishlatiladi. Islom dini ta‘limotida inson o‘zi yashab turgan Vatanini, dinini, oila ahlini himoya qilishi eng ulug‘ amallardan ekanligi ta‘kidlangan. Vatan himoyasi uchun harbiylar safida turish ham dinimizda ulkan savobli amal sanaladi. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Bir kecha kunduz «ribot», (ya‘ni dushman qarshisida turish) bir oy tutilgan nafl ro‘za va o‘qilgan tungi namozdan yaxshidir», – deb marhamat qilganlar (Imom Muslim rivoyati).

Ulamolardan birlari aytgan edi: «Har bir kimsaga ma‘lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrli, qimmatli to‘rt narsasi bordir. Bu to‘rt narsaga ega bo‘lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo‘lurlar. Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o‘zi egalik qilmog‘i, tug‘ilib o‘sgan ona Vatani hamda asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelayotgan muqaddas dini».

Hakimlar aytadilar: «Kishining vafodorligi uning o‘z vatani uchun qayg‘urishidan, birodarlarini sog‘inishidan va umrining zoye ketkazgan lahzalariga o‘kinib yashashidan bilinadi». Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi uni vatanini himoya qilishiga, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishiga hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajasida hissa qo‘shishga undashi lozim.

Vatanni turli g‘arazli oqimlar va yovuz kuchlardan himoya qilish yo‘lida diniy ekstremizm va uning turli ko‘rinishlariga qarshi kurashish, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash borasida olib borilgan tezkor-profilaktik tadbirlar o‘z samarasini berib, sezilarli darajada ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi.



Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga e’tibor kuchaytirildi. Yurtimizda amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar kelajagimiz egalarini Vatanga, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Vaholanki, o‘tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqning bugungi avlodlari, o‘z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e’tirof etilishini ta’kidlab o‘tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg‘ular milliy g‘urur hamda ruhiy barkamollikka etaklaydi, milliy o‘zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. SHuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo‘lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni engish, irodalilik. sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarini talaba – yoshlar va o‘qituvchilarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o‘yinlarining roli benihoyat kattadir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma’naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Umumta’lim o‘quv muassasalarida, o‘rta maxsus va o‘rta kasb – hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarni, shu jumladan oliy ta’lim dargohlarida ta’lim olayotgan talaba – yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta’lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo‘lishni talab etadi. O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasalarining asosiy o‘rin egallashi darkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –

Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 82 b.



2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001
– 153 b.

3. Karimov.I.A Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard
maqsadimiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2000. – 471 b.

4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992. – 44
b.

5. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. –Toshkent:
O‘zbekiston, 1992. -76 b.

